

TALABALARNING PEDAGOGIK AMALIYOTINI TASHKIL QILISH

Saydaxmetova Shaxnoza Ravshanbekovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Kimyo va uni o‘qitish metodikasi v.b. dotsenti PhD

E-mail: Saydaxmetova_shaxnoza77@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va olib borish haqida so‘z boradi. Talabalarning kreativligini oshirish va bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: maktab, oliy ta‘lim, malakaviy pedagogik amaliyot, innovasion texnologiyalar, kreativlik.

ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL PRACTICE OF STUDENTS.

Abstract: This article discusses the organization and conduct of qualified teaching practice. The content and methods of increasing the creativity of students and training future specialists were discussed.

Key words: school, higher education, qualified pedagogical practice, innovative technologies, creativity.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda zamonaviy ilm-fan va tarbiyaning zarurligi, bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilarga bog‘liq ekanligi e‘tirof etilmoqda. Ta‘lim sohasida o‘qituvchilarga bo‘lgan e‘tibor ularning erkin ijod qilishi faoliyatini yangi qirralarni ezgu maqsadlarini amalga oshirishga imkon yaratmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda bu kasbni egallashni xohlovchi yoshlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. “2022 yil - Inson qadrini ulug‘lash va

faol mahalla yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari amalga tadbiiq qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-son O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni hamda 12.08.2020 yildagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorlarining ijrosi yuzasidan Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta‘lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash, Kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Malakaviy pedagogik amaliyot o‘tkazish: talabalarning kimyo fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash orqali ko‘nikmalarni shakllantirib malaka hosil bo‘lishiga olib keladi. O‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan innovasion texnologiyalardan foydalanish turli fanlarni o‘qitishda stereotiplarni bartaraf etishga, pedagogik vaziyatlarga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni yetishtiruvchi pedagogika oliy ta‘lim tashkiloti talabalar uchun 1-kursdan boshlab darslarning 4 kunini oliy ta‘lim muassasasida, 2 kunini maktabda bevosita amaliyot o‘tash tartibida tashkil etishni belgilandi. O‘zbekiston Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. “Zamonaviy maktab” loyihasi doirasida 2020—2022-yillarda butun respublika bo‘yicha, xususan uzoqda joylashgan tuman va qishloqlarda 48 ta yangi maktablar qurilishi, 748 ta maktablarda rekonstruksiya va kapital ta‘mir ishlari amalga oshiriladi. Yuz marta gapirgandan bir marta ko‘rgan yaxshi deydi dono xalqimiz.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedasi Yangi hayot tumanidagi 330-umumta‘lim maktabi bilan hamkorlikni yolga qo‘ygan. Bu maktab bugungi kundagi yangi zamonaviy jihozlangan

yangi ko‘rinishdagi maktablardan biri hisoblanadi. Talabalarning pedagogik amaliyotining bunday maktablarda tashkil qilinishi ta’lim sohasida hukumat farmon va qarorlarining ijrosining ta’minlanayotganligining in’ikosidir. Innovasion ta’limda qo‘llaniladigan metodlar va pedagogik texnologiyalar haqida so‘z borganda amaliyotchi talabalarni aynan shunday muhitga olib kirish va o‘z qarashlarini shakllantirishlarida kreativlikning ahamiyatini yoritish muhimdir. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida nostandart fikrlaydigan ijodkorlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy ta’limning asosi o‘quv fanlari emas, balki o‘quvchilarning fikrlashi va faolligi bo‘lishi kerak. Har qanday oliy o‘quv yurtining vazifasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni bitirishi, balki talabalarni tubdan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga, ularni ishlab chiqarish muhitining real sharoitlariga moslashtirishga qo‘shishdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida talabalarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirish muhim: ijodiy faollik, ijodiy fikrlash, tahlil qilish, baholash bugungi kun talabining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tez moslashish qobiliyati. Bunday ko‘nikmalarni egallash ko‘p jihatdan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubiga ham bog‘liqdir. Pedagogik amaliyotini tashkil qilishda maktab va oliy ta’limning o‘zaro hamkorligi talabalarning olgan bilimlarini amalda sinab ko‘rish imkoniyatini tug‘diradi va ta’lim sifatini oshirish muammolarini hal qiladi. O‘qituvchi kasbining benihoyat qadrililigini tushunishi, mashaqqatli va shu bilan birga sharafligini his qilish orqali kasbga muhabbati ortadi. Talaba malakaviy pedagogik amaliyotning birinchi bosqichida - kuzatuv amaliyoti tashkil qilinib faol talabadan → kuzatuvchi, tahlil qiluvchi, o‘rganuvchi; ikkinchi bosqichida - analiz qiluvchi, baholovchi faol va ijodiy qo‘llovchi bosqichlaridan o‘tadi. Talabalarga II kursdan ishlash imkoniyatining yaratilishi uning kasbiy rivojlanish davridagi muammolarni hal etishda metodist o‘qituvchilar bilan birgalikda doimiy muloqoti amalga oshiradi. Ustoz-shogid tizimining bunday ko‘rinishi samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.R. Saydakhmetova. Teaching organic chemistry as organization and development of students educational activity. /International Virtual Conference on Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences ITRIIS 2021 Eurasia conference.com January 20th, 2021 Newyork, USA, p.-342-345
2. Saydaxmetova Sh.R., Bozorov U.E., Uralova F.B., Baxtiyorova A.Z., Suyarova M.K. Kimyo darslariga innovasion texnologiyalarini qo‘llash. /O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlarning zamonaviy yutuqlari va o‘qitishda innovatsiyalar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani 10 aprel Toshkent-2021 b.-251-254 azilatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

